

**BO‘LAJAK BOJXONA XIZMATI ORGANI XODIMLARINING HUQUQIY
MADANIYATI MAZMUNI VA IJTIMOIIY FUNKSIYALARI****Rafikova Muattar Ravshanovna**

*Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrası
dotsenti, bojxona xizmati podpolkovniki,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa fanlari doktori(PhD)*

Annotatsiya. *Bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy madaniyati mazmuni va ijtimoiy funksiyalari masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona xizmati organi xodimlari, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy funksiya, kasbiy shakllanish.*

Abstract. *The content of the legal culture and social functions of customs service employees are covered.*

Keywords: *customs service employees, legal culture, legal awareness, legal education, legal function, professional formation.*

Ma'lumki, ta'lim jarayonida kasbiy fanlarni o'rganish davomida bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarda nafaqat huquqiy bilimlar, ko'nikma va mahorat, balki shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Mana shunda huquqiy ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqadorligi namoyon bo'ladi. Huquqiy ta'lim va tarbiyani yaxlit jarayon sifatida olib qarash bilan birga ularning nisbatan mustaqilligi va o'ziga xosliklarini ko'rmaslik mumkin emas. Biroq, bu o'zaro kelishilgan ta'sir bo'lajak bojxona xizmati xodimiga huquqiy ta'sirning o'ziga xosliklarini o'rganish zaruratini inkor etmaydi, chunki bo'lajak bojxona xizmati organi xodimning huquqiy tarbiyasi harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklar oldini olish va huquqiy sohada kursantlarning faol hayotiy pozitsiyalarini shakllantirishning muhim mustaqil vositasi bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri – *huquqiy ong*dir. Huquqiy ong o'z mohiyatiga ko'ra huquqni anglash bo'lib, shaxslar turli ijtimoiy guruhlarining obyektiv ehtiyojlari hamda manfaatlari asosida shakllanadi va takomillashib boradi.

Huquqiy ong *kundalik* va *nazariy darajalarga* egadir. Kundalik darajadagi huquqiy ruhiyat (psixologiya) alohida shaxslar, ijtimoiy guruhlar va barcha fuqarolarning jamiyatdagi huquqiy muhitning bevosita ta'siri ostida vujudga keladigan huquqiy tuyg'ulari va hissiyotlari yig'indisidan iboratdir. Bu holat qonunlarga, yuridik normalarga huquqni

muhofaza qilish organlarining faoliyatiga nisbatan norozilik yoki mamnunlik, yoxud loqaydlik singari hissiyotlar sifatida ko‘rinadi.

Huquqiy ongning shakllantirilishida uning axloqiy tarbiya bilan uyg‘un tarzda olib borilishi ko‘proq ijobiy samara beradi.

Shuning uchun ham qonun ustuvor bo‘lgan davlatda jamiyat va shaxs huquqiy ongining muhim jihati qonunga hurmat, uning qadrini shaxs axloqiy qadriyatlarining eng yuqori darajasiga ko‘tarish, huquqiy faollikni, huquqiy tashabbuskorlikni shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Aynan huquqiy faollik va tashabbuskorlik shaxs huquqiy ongining, qonunga hurmatining yuksak darajasini ko‘rsatuvchi muhim belgidir [1].

Huquqiy ong – huquqiy hissiyotlar, tuyg‘ular, g‘oyalar, qarashlar, baholar, yo‘l-yo‘riqlar, tasavvurlar va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasiga munosabatini ko‘rsatuvchi, bu munosabat esa amaldagi huquqqa, huquqiy amaliyotga, fuqarolar huquqlari va burchlariga nisbatan, shuningdek, boshqa orzu qilingan huquqlarga nisbatan bo‘lishi lozim holatlar tizimidir[2].

Bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarning huquqiy madaniyati huquqiy ongning ancha yuqori va hajmi katta shakli bo‘lish bilan birga huquqiy bilimlar asoslarini egallaganlikda, qonunga, huquqqa nisbatan hurmatda, huquq me‘yorlariga ongli ravishda rioya qilishda, ma’suliyatni his qilishda, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlikda, ularga qarshi kurashda ifodalanadi.

Bo‘lajak bojxona organi xodimining kasbiy huquqiy ongi tushunchasiga quyidagicha ta’rif berildi: bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy ongi – bu ijtimoiy tartib-qoidalarini muhofaza qilish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini ularga tajovuz qilinishida qo‘riqlash bilan professional tarzda shug‘ullanuvchi, favqulodda holatlarda va boshqa huquqiy ahamiyati katta bo‘lgan vaziyatlarda faoliyat olib boruvchi bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarning xulq-atvorini tartibga soluvchi huquqiy bilimlar, qarashlar, o‘z kasbiy huquq va majburiyatlari haqidagi tasavvurlar, yo‘l-yo‘riqlar va boshqa qadriyatli yo‘nalishlar tizimidir.

Huquqiy ongni shakllantirish uchun huquqiy tarbiya katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Huquqiy tarbiya – bu muhim ijtimoiy yo‘nalish bo‘lib, u bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarga huquqiy bilimlarni singdirish imkoniyatini beradi. Biroq, bu bilimlarning huquqiy ongda va buning natijasida individlarning huquqiy madaniyatida hosil qilinishi ko‘pincha nafaqat ijtimoiy tashkil etilgan ongli tarbiyaviy faoliyatda, balki ijtimoiy voqelikning turli xildagi obyektiv omillari ta’siri ostida ham ro‘y beradi.

Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimining “huquqiy tarbiyasi” va uning “huquqiy shakllanishi” tushunchalarini farqlash lozim bo‘ladi.

Bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarning “huquqiy tarbiyasi” deganda bo‘lajak bojxona organi xodimlarining huquqiy ongiga ta’sir ko‘rsatishning maxsus yaratilgan huquqiy tarbiya shakllari va vositalari yordamida amalga oshirishga qaratilgan, tashkiliy, boshqariluvchan va oldindan belgilangan pedagogik jarayon tushuniladi.

“Huquqiy shakllanish” – bu ancha keng va hajmli tushunchadir. U o‘z ichiga huquqiy tarbiya jarayonidan tashqari yana bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarning huquqiy ongiga ijtimoiy omillarning jamiyat hayotidagi barcha sohalarga kirib boruvchi, obyektiv mavjud bo‘lgan ommaviy, ko‘pincha boshqarilmaydigan, tashkiliy bo‘lmagan, oldindan belgilanmaydigan ta’sirlar jarayonini ham oladi.

Huquqiy tarbiya berishda kursantlarning huquqiy ongida quyidagi xususiyatlarini shakllantirish lozim:

- asosiy huquqiy talablar tizimini bilish, ularning mazmuni va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish hamda tushuntira olish;
- huquqqa, qonunlarga, qonunchilikka va huquq-tartibotga chuqur ichki hurmat;
- huquqiy bilimlardan amaliyotda mustaqil foydalana olish, kundalik xulq-atvorni va real voqelikka shaxsiy munosabatni olingan huquqiy bilimlarni o‘z amaliy faoliyati bilan moslashtira olish mahorati;
- xulq-atvor odatlarini olingan huquqiy bilimlar bilan aniq moslashtira olish;
- huquqiy me’yorlarni istalgan shakllarda buzishni amalga oshirishga mustahkam va barqaror ma’naviy huquqiy immunitet.

Bu jamlanmaga kiruvchi huquqiy ong komponentlari aslida bo‘lajak bojxona xizmati xodimining psixologik va g‘oyaviy yo‘l-yo‘riqlarini – huquqiy bilimlarni hayotda faol qo‘llashga doimiy tayyor bo‘lish zaruratini tashkil etadi. Aynan mana shunday tayyorgarlik darajasi huquqiy tarbiya ishlari samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy tarbiya jarayoni bir tomondan bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida huquq haqida zaruriy tasavvurlarni shakllantirish, boshqa tomondan esa huquqiy me’yorlarga mos holda harakat qilish ehtiyojini tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Bundan kelib chiqib huquqiy – tarbiya bu bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarning huquqiy ongida chuqur va barqaror huquqiy bilimlar, ishonch, ehtiyoj, qadriyatlar, qonuniy xulq-atvor odatlarini shakllantirish maqsadlarida hozirgi zamon pedagogik va huquqiy faoliyat arsenalida mavjud bo‘lgan turli-tuman huquqiy tarbiya shakllari, vositalari va metodlarining butun jamlanmasi yordamida bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarining ongiga va psixologiyasiga rejali, boshqariluvchi, tashkiliy, tizimli va maqsadga qaratilgan ta’sirdir.

Bojxona xizmati organi xodimlari huquqiy madaniyatini takomillashtirishda huquqiy kompetensiya muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ularda qonunga itoatkor fuqarolarnikiga qaraganda ancha yuqori bo‘lishi, huquqiy bilimlar, tamoyillar va me’yorlarning hajmi,

chuqurligi va shakllanganli bilan farq qilishi va eng muhimi – yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, huquqiy me’yorlarni qo‘llay olish mahorati bilan ajralib turishi lozim. Bojxona xizmati xodimlari huquqqa nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabat va uni amalda qo‘llay olish barqarorligi ajratib turishi zarur bo‘lib, bu qonunchilik hokimiyati, mansabdor shaxslar bilan kelisha olishi, huquqiy me’yorlarning foydaliligi, zarurligi va ularni qo‘llash haqqoniyligini tushunish, qonunlarga va nizomlarga rioya qilish odatlarining maksimal yuqori darajasini ko‘zda tutadi.

Huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi tarkibiy unsurlaridan yana biri–*huquqiy hatti-harakatdir*. Shaxs huquq me’yorlarining talablarini turli usullar bilan amalga oshiradi. Huquqqa rioya etish, huquqiy me’yorlarga amal qilish, qonunga xilof hatti-harakatlardan o‘zini tiyish majburiyati kabilar shunday usullardir.

Huquqiy madaniyat tarkibiga kiruvchi unsurlardan yana biri – *huquqiy munosabatlar* bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me’yorlar orqali tartibga solingan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan huquqiy munosabatlar huquq amal qilishining makonidir. Huquqiy munosabatlar, bir tomondan, jamiyat ijtimoiy va huquqiy rivojlanish darajasi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini aks ettiradi.

Huquqiy madaniyat jamiyatda mazmunan bevosita bir-biri bilan aloqador bo‘lgan bir qancha funksiyalarni bajaradi. “Funksiya” so‘zi (lotincha – *functia* – amalga oshirish, bajarish) – faoliyat, ba’zi sistemalar doirasidagi obyektning unga mansubligi va rolini anglatadi. Ya’ni, biron-bir ishni, vazifani bajarish va maqsadni yuzaga chiqarish demakdir[3].

Funksiya huquqiy madaniyatni tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarning jamiyatdagi o‘rni va rolini belgilab, ularning faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyat funksiyalari – uning shaxs va jamiyat hayotining turli jabhalariga ta’sir o‘tkazishning alohida yo‘nalishlari bo‘lib, shaxsni huquqiy ijtimoiylashtirishdan tashqari, uning ayrim tarkibiy qismlari: huquq, huquqiy munosabatlar, huquqiy ong bilan muvofiqlikda namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyatning funksiyalari haqida so‘z borganda, birinchidan, huquqiy madaniyatning amalga oshiradigan ijtimoiy vazifalarini, ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xulq-atvor va harakatlarning barcha turlarini muvofiqlashtirishini birgalikda tushunish zarur.

Demak, huquqiy madaniyatning funksiyalari – uning ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishi jarayonida huquqiy muloqot va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy

vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xulq-atvor va harakatlarning barcha turlarini uyg‘unlashtirish va ularga izchil ta’sir o‘tkazishida ko‘rinadi, ya’ni:

- huquqiy madaniyatning funksiyalari huquqiy hayotning eng muhim xususiyatlarini ifodalaydi va faoliyatni huquqiy hayotda mavjud bo‘lgan eng muhim masalalarni hal etishga yo‘naltiradi;

- huquqiy madaniyat funksiyalarida jamiyat huquqiy tizimidagi ijtimoiy yaratuvchilik, ijodiylik xususiyati aks etadi;

- huquqiy madaniyat funksiyalari huquqiy tizim tarkibiga kiruvchi barcha qismlarining samarali faoliyat ko‘rsatishini muvofiqlashtirib boradi;

- huquqiy madaniyat alohida shaxslar, kasbiy (professional) guruhlar va ijtimoiy-demografik guruhlar faoliyati orqali amal qiladi;

- huquqiy madaniyat funksiyalari huquq subyektlarining huquqiy hatti-harakat doirasidagi bevosita hamda o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasidagi bilvosita (manbalar orqali) muloqot o‘rnatish qobiliyatini shakllantiradi;

- huquqiy madaniyat funksiyalari shaxs va jamiyat hayotining turli jabhalariga ta’sir ko‘rsatishning alohida yo‘nalishlari bo‘lib, ularning har biri obyektiv va subyektiv borliqqa yuridik faoliyat ta’sirini aks ettiradi.

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda bildirilgan fikrlar, qarashlar tahlili va huquqiy madaniyatning jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatida tutgan o‘rniga ko‘ra quyidagi funksiyalarni bajaradi deb aytish mumkin

- tartibga solish – me’yoriy funksiyasi;
- ijtimoiylashtirish funksiyasi;
- kommunikativ funksiyasi;
- integrativ funksiyasi;
- adaptiv funksiyasi;
- ma’rifiy funksiyasi;
- tarbiyaviy funksiyasi;
- akseologik funksiyasi;
- bashorat funksiyasi;

Huquqiy madaniyatning *tartibga solish – me’yoriy funksiyasi* yetakchi va belgilovchi ahamiyat kasb etib, huquqiy va ijtimoiy me’yorlar orqali amalga oshirilishida, huquq tizimi takibiga kiruvchi barcha bo‘g‘inlarning barqaror va samarali faoliyat yuritilishini muvofiqlashtirishida namoyon bo‘ladi. Ushbu funksiyaga ko‘ra kishilar faoliyati huquqiy munosabatlarda huquq va majuriyatlar uyg‘unligi asosida manfaatlar va ehtiyojlarni amalga oshirishda muayyan qoidalarga bo‘ysundiriladi va tartibga solinadi.

Jamiyatda qonunning ustvorligi fuqarolarning, ayniqsa, bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarining jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar asosida yashashi, o‘z xulq-atvori amaliy faoliyatlarini idora etib, yo‘naltirib hamda ijtimoiy kutilgan normaga muvofiqlashtirib borishlariga o‘rgatadi.

Huquqiy madaniyatning *ijtimoiylashtirish funksiyasi* aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui bo‘lib, huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida malakali yuridik yordam ko‘rsatish, shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z huquqiy saviyasini oshirish orqali faollashtirishdan iboratdir. Shunga ko‘ra “ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat yaratgan bilimlarni, normalarni o‘rnatish va xulq-atvorni o‘zlashtirish orqali ijtimoiy munosabatlarda qatnashishdir[4].

Huquqiy madaniyatning ijtimoiylashtirish funksiyasining asosiy maqsadi jamiyatning har bir a‘zosida har qanday huquqbuzarliklarga murosasiz bo‘lish, qonunchilikka va huquqiy tartibot talablariga qat’iy rioya qilish ko‘nikmasini hosil qilish orqali qonunlarga hurmat, huquqiy e‘tiqodni va ishonchni shakllantirishga qaratilgan. Axloqiy-huquqiy ijtimoiylashtirishning umumiy jarayonida rivojlangan huquqiy ong va huquqiy madaniyat tashuvchilari bo‘lgan shaxslarni shakllantirish orqaligina huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishini amalga oshirish mumkin.

Huquqiy madaniyatning *kommunikativ funksiyasi* orqali jamiyat a‘zolarining huquq subyektlari va huquqiy madaniyat tashuvchilari sifatidagi muloqotlari amalga oshadi.

Ushbu muloqot huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqot doirasi bilan cheklanib qolmasdan, yozma yuridik manbalar orqali o‘tmish ajdodlarimiz bilan, ommaviy axborot vositalari, og‘zaki, yozma, kompyuter texnologiyalari orqali zamondoshlarimiz bilan bo‘ladigan muloqotni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Muayyan jamiyatning huquqiy madaniyati boshqa millatlar, jamiyatlar huquqiy madaniyati bilan muloqotlar va munosabatlar o‘rnatish orqaligina muvaffaqiyatli rivojlana oladi.

Umuminsoniylik va milliylikning o‘zaro ta’siri umuminsoniy huquqiy qadriyatlar huquqiy madaniyatning ijtimoi mohiyatini aks ettiradi.

Oxir oqibatda huquqiy madaniyatning kommunikativ funksiyasi inidividlar huquqiy madaniyatining shakllanishi va yuksalishini, huquqiy tajribani o‘zlashtirish orqali jamiyatning takomillashishini, fuqarolar huquqiy aloqasini ta’minlaydi.

Huquqiy madaniyatning *integrativ funksiyasi* uning huquq sohasidagi milliy va umuminsoniy, tarixiy-an’anaviy va zamonaviy, hududiy va mintaqaviy belgilarni uyg‘unlashtirishi va umumlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy madaniyatning *adaptiv funksiyasi* insonlarning o‘zlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy muhit me‘yorlariga ham moslashishlarida ko‘rinadi. (Adaptatsiya so‘zi lotincha “moslashish” ma‘nolarini anglatadi). Shuningdek, bu moslashuv passiv xususiyatga ega bo‘lmasdan, inson tomonidan moslashuv jarayonida o‘z qarashlariga muvofiq o‘zgartirishga ham initilishiga ko‘ra faol hisoblanadi.

Bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlari avval turli ijtimoiy-madaniy muhitda tarbiyalangan bo‘lsalar, Bojxona institutida ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi muhit, alohida ijtimoiy-demografik qatlam vujudga keladi.

Huquqiy madaniyat ushbu ziddiyatlarni farqlashga, kursantlarni yangi ijtimoiy muhit, me‘yorlar va qonunlarga moslashishga undaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta‘lim-tarbiya jarayoni bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarining turli ekstremal holatlardan, buzg‘unchi ta’sirlar doirasiga tushib qolishdan asraydi.

Huquqiy madaniyatning *ma’rifiy funksiyasi* fuqarolarning huquqiy hayot va huquqiy bilimlarga oid ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishida ko‘rinadi. Fuqarolar, jumladan, bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar va g‘ayriqonuniy harakatlari ko‘pincha ular da huquqiy bilimlarning yetarli emasligidan kelib chiqadi. Huquqiy madaniyatning barcha funksiyalari tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, u yoki bu darajada tarbiya bilan bog‘langan.

Huquqiy madaniyat sohasidagi bashorat huquqiy-madaniy maqsadlarga erishish vositalarini aniqlashdangina iborat bo‘lib qolmasdan, yangi huquqiy qadriyatlar paydo bo‘lishi mumkinligini asoslash, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak bojxona xizmati organi xodimlarining ongi huquqiy hayotdagi vazifalarni faol bajarishga qodir bo‘lsagina ular yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev X.B, Xasanov S. Ilk turkiy yozma yodgorliklarda davlatni idora qilish siyosati va huquq masalalari // Hayot va qonun. – 1995. – № 2. – B. 3-8.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: “Adolat”, 2007. – 551 b.
3. Lukasheva Ye.A. Pravo i lichnost – M.: Nauka. 1987. – S. 159.
4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2010.- 152 b.